

ONA TILI DARSLARIDA FE’L SO‘Z TURKUMINI INTERFAOL METODLAR ASOSIDA O‘QITISH MASALALAR**Tursunov Jahongir Panjixonovich***Termiz davlat pedagogika instituti**Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasini o‘qituvchisi***Mamanova Madina***Termiz davlat pedagogika instituti talabasi***Xurramova Bahor***Termiz davlat pedagogika instituti talabasi*

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida fe‘l so‘z turkumini o‘qitish jarayonini zamonaviy pedagogik va lingvodidaktik yondashuvlar asosida tashkil etish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda fe‘lning leksik-grammatik mohiyati, grammatik kategoriyalari va vazifa shakllarini o‘rgatishda interfaol metodlardan foydalanishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Maqolada fe‘lni o‘qitishda “aqliy hujum”, “savol-javob zanjiri”, “rangli kartochkalar”, “rolli o‘yinlar”, “o‘yinli test”, “topishmoq va tez aytishlar”, “qiziqarli she‘r yaratish”, “zamonga ko‘ra fe‘l o‘zgartirish” hamda “yashirin so‘z o‘yini” metodlarining ta‘lim samaradorligiga ta‘siri ilmiy asosda yoritilgan. Ushbu metodlar o‘quvchilarning grammatik kompetensiyasini shakllantirish, nutqiy faolligini oshirish va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: fe‘l so‘z turkumi, interfaol metodlar, lingvodidaktika, grammatik kompetensiya, o‘yin texnologiyalari.

Bugungi kunda ona tili ta‘limida grammatik mavzularni samarali o‘qitish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, fe‘l so‘z turkumi o‘zbek tilining markaziy grammatik birliklaridan biri bo‘lib, gapning predikativ asosini tashkil etadi. Fe‘l orqali harakat, holat va jarayon zamon bilan bog‘liq holda ifodalanadi. Shu bois, fe‘lni o‘qitishda faqat an‘anaviy tushuntirish usullari bilan cheklanib qolish o‘quvchilarda grammatik bilimlarning yetarli darajada shakllanishiga to‘sqinlik qiladi (Ahmadov, 2019). Zamonaviy ta‘lim paradigmasi o‘quvchini dars jarayonining faol subyekti sifatida ko‘rib, interfaol metodlardan foydalanishni talab etadi (Karimova, 2020). Shu munosabat bilan, fe‘l so‘z turkumini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari dolzarb masala sifatida ko‘riladi. Til – inson tafakkuri va madaniyatining asosiy ifoda vositasi bo‘lib, uning barcha sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslikda esa so‘z turkumlari til birliklarini o‘rganish va tasniflashning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shunday so‘z

turkumlaridan biri bo‘lgan fe‘l har qanday tilda markaziy o‘rin tutadi, chunki u harakat, holat va jarayonni ifodalaydi hamda gap tuzilishida asosiy sintaktik vazifalarni bajaradi (Tursunov, 2018). O‘zbek tilida fe‘l so‘z turkumi murakkab va serqirra tushuncha bo‘lib, uni o‘rganish va o‘rgatish tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biridir. Fe‘lning shaxs-son, zamon, mayl va nisbat kabi grammatik kategoriyalari borligi uni boshqa so‘z turkumlaridan farqlaydi va shu sababli uni o‘rgatish o‘qituvchidan puxta metodik yondashuvni talab qiladi. Maktab va oliy ta‘lim bosqichlarida fe‘lni o‘rgatish, uning mohiyatini tushuntirish, o‘quvchilarning grammatika bilimlarini shakllantirish va mustahkamlash uchun samarali metodlardan foydalanish muhimdir (Rashidov, 2021).

Ushbu maqolaning maqsadi-fe‘lni o‘rgatishda o‘qituvchilarga nazariy va amaliy jihatdan yordam berish, o‘quvchilarda ushbu so‘z turkumi bo‘yicha mustahkam bilim va ko‘nikmalar hosil qilishga ko‘maklashishdir. Shu tariqa, fe‘l so‘z turkumining o‘qitish metodikasi samarali yo‘lga qo‘yilganda, o‘quvchilarning til madaniyati, fikrlash qobiliyati va grammatik bilimlari yanada rivojlanadi.

Fe‘l mustaqil so‘z turkumi bo‘lib, shaxs va narsalarning harakati, holati hamda jarayonini zamon nuqtai nazaridan ifodalaydi. Fe‘lning asosiy grammatik kategoriyalariga zamon, mayl, nisbat va shaxs-son shakllari kiradi (Hojiyev, 2004). Ushbu kategoriyalar fe‘lni boshqa so‘z turkumlaridan farqlab turuvchi muhim grammatik belgilar hisoblanadi (Mahmudov, 1995). Fe‘l gap tarkibida asosan kesim vazifasida kelib, fikrning tugallanganligini ta‘minlaydi (Rahmatullayev, 2006). Lingvistik jihatdan fe‘lning murakkabligi uni o‘qitishda puxta metodik yondashuvni talab qiladi. Shu sababli fe‘lni o‘rgatishda interfaol va innovatsion metodlardan foydalanish o‘quvchilarning grammatik bilimlarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi (Sayfullayeva, 2010).

Aqliy hujum usuli, savol-javob zanjiri usuli, rangli kartochkalar usuli, rolli o‘yinlar usuli, o‘yinli test usuli, topishmoq va tez aytishlar usuli, qiziqarli she‘r yaratish usuli, zamonga ko‘ra fe‘l o‘zgartirish usuli, yashirin so‘z o‘yini usuli.

Fe‘l so‘z turkumi til tizimida muhim o‘rin egallab, nutq jarayonida harakat, holat va jarayonlarni ifodalashda asosiy vosita hisoblanadi. Uni o‘rgatish jarayoni o‘quvchilardan nafaqat nazariy bilim, balki amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini ham talab etadi. An‘anaviy ta‘lim usullari fe‘lning murakkab grammatik xususiyatlarini to‘liq o‘zlashtirishda har doim ham kutilgan samarani bermaydi. Shu bois zamonaviy ta‘lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida ushbu metodlarning ta‘lim jarayonidagi samaradorligi tadqiqot natijalari asosida tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida fe‘l so‘z turkumini o‘rgatishda turli interfaol metodlardan foydalanildi va ularning samaradorligi tahlil qilinib olingan natijalar quyidagilarni ko‘rsatdi.

Fe’l so‘z turkumini o‘rgatish tilshunoslik va pedagogika nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu jarayon o‘quvchilarning grammatik bilimlarini shakllantirish, nutqiy faolligini oshirish va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu metodik tavsiyada fe’lning grammatik xususiyatlari, o‘rgatish metodlari hamda zamonaviy ta’lim yondashuvlari chuqur tahlil qilindi. Fe’lning shaxs-son, zamon, mayl, nisbat kabi kategoriyalarini o‘rgatishda an’anaviy va innovatsion usullarni uyg‘unlashtirish samarali natijalar beradi. Jumladan, interfaol metodlar, didaktik o‘yinlar, vizual va audiovizual materiallardan foydalanish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularning grammatik tushunchalarni osonroq o‘zlashtirishiga yordam beradi. Shuningdek, fe’lni o‘rgatishda amaliy mashqlar va mustahkamlovchi topshiriqlardan foydalanish nazariy bilimlarning real nutqiy faoliyat bilan bog‘lanishiga imkon yaratadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, fe’lni samarali o‘rgatish uchun o‘qituvchi individual yondashuvni tanlashi, har bir o‘quvchining bilim darajasi va ehtiyojlarini inobatga olishi lozim. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, jumladan, multimedia vositalari, elektron o‘quv resurslari va interfaol platformalarni dars jarayoniga tatbiq etish o‘quv jarayonining sifatini oshiradi. Ushbu metodik tavsiya fe’lni o‘rgatish jarayonini takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, o‘qituvchilarga nazariy va amaliy jihatdan ko‘mak berish, o‘quvchilarning fe’lga oid bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Fe’lni o‘zlashtirish natijasida o‘quvchilarning til madaniyati, yozma va og‘zaki nutq ravonligi oshadi, ular grammatik qoidalarni amaliy nutqiy faoliyatda to‘g‘ri qo‘llashga o‘rganadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Ahmadov M. Til o‘qitishda pedagogik texnologiyalar.-Toshkent: Ta’lim, 2019.-152 b.
- 2.Karimova S. O‘quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish metodlari. -Samarqand: Fan, 2020. -128 b.